

ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

Fargʻona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti

gulasal_mamajonova2023@ferpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalariga bagʻishlangan. Maqolaning asosiy maqsadi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarish korxonalari quvvatlaridan oqilona va unumli foydalanish strategiyalarini shakllantirish, yaratish va joriy etish holatini oʻrganishdan iborat. Bugungi kunda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga koʻmaklashadigan strategiyalarni ishlab chiqish jarayonlarini sinchkovlik bilan koʻrib chiqishni talab etadigan muhim masala hisoblanadi. Tadqiqotimiz natijasida ishlab chiqarish quvvatlarini samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy takliflar taqdim etildi. Bunday yondashuv sanoatni rivojlantirish boʻyicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish va har bir korxona faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kalit soʻzlar: *ishlab chiqarish sanoati, yengil sanoat korxonalari, ishlab chiqarish jarayonlari, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarish strategiyalari.*

ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ СТРАТЕГИЙ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ МОЩНОСТЕЙ

Мамажонова Гуласал Орибжон кизи

Ферганский государственный технический университет, базовый докторант

gulasal_mamajonova2023@ferpi.uz

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам разработки стратегий эффективного использования производственных мощностей. Основной целью статьи является изучение состояния формирования, создания и внедрения стратегий рационального и эффективного использования мощностей производственных предприятий в современных экономических условиях. На сегодняшний день это важный вопрос, требующий тщательного рассмотрения процессов разработки стратегий, способствующих оптимизации использования производственных ресурсов. В результате нашего исследования были

представлены научные предложения, направленные на разработку стратегий эффективного управления производственными мощностями. Такой подход позволит эффективно реализовать государственную политику по развитию промышленности и повысить эффективность деятельности каждого предприятия.

Ключевые слова: *производственная отрасль, предприятия легкой промышленности, производственные процессы, производственная мощность предприятия, производственные стратегии.*

ISSUES OF DEVELOPING STRATEGIES FOR THE EFFECTIVE USE OF PRODUCTION CAPACITIES

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

Fergana State Technical University, basic doctoral student

gulasal_mamajonova2023@ferpi.uz

Abstract: This article is devoted to the issues of developing strategies for the effective use of production capacities. The main goal of the article is to study the state of formation, creation, and implementation of strategies for the rational and efficient use of production enterprises' capacities in modern economic conditions. Today, it is an important issue that requires a careful consideration of the processes of developing strategies that contribute to the optimization of the use of production resources. As a result of our research, scientific proposals aimed at developing effective production capacity management strategies were presented. Such an approach creates the opportunity for the effective implementation of state policy on industrial development and increasing the efficiency of the activities of each enterprise.

Keywords: *manufacturing industry, light industry enterprises, production processes, enterprise production capacity, production strategies.*

KIRISH

Yangi texnologik davr shakllanayotgan bir paytda, ishlab chiqarish sanoati, ayniqsa yengil sanoatning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu soha O'zbekiston iqtisodiyotida azaldan muhim o'rin egallab kelgan. Uning rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatning iqtisodiy salohiyati o'sishi holati va istiqbollari, ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini, shuningdek, davlatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini belgilab beradi.

Ko'p hollarda yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari tarkibi texnologik jihatdan murakkab hisoblanadi. Ulardagi texnologik yechimlarning keng spektri, doimiy ravishda yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish zarurati, shuningdek,

bevosita ishlab chiqarish jarayoni va undagi mehnatni tashkil etishga turli xil yondashuvlar bilan ajralib turadi.

Ta'kidlash joizki, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki yengil sanoati korxonalarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha omillar mavjud:

- ayrim ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik jihatdan orqada qolishi;
- ishlab chiqarishning yuqori energiya va material sig'imi;
- ishlab chiqarish jarayonlariga ilmiy yondashuvlarning etishmasligi;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun mablag' yetishmasligi;
- mehnat samaradorligining pastligi;
- texnologik butlovchi qismlar importiga bog'liqlik.

Shu o'rinda bugungi kunda O'zbekistonda sanoatda barqaror, dinamik va mutanosib ilmiy-texnologik taraqqiyotni ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu yo'nalish qonunchilik darajasida mustahkamlangan va ekspertlar hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Muhim jihati shundaki, alohida korxonalar, tarmoqlar va umuman mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ishlab chiqarish quvvatlari va texnologiyalardan qanchalik samarali foydalanishga bog'liq.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatning ilmiy-texnologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ularni boshqarish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari nafaqat korxona, balki O'zbekiston hukumati uchun ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda sanoatning ayrim tarmoqlarida milliy darajada rivojlanish strategiyasi allaqachon ishlab chiqilgan.

Turli yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab dasturiy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ushbu hujjatlar, shuningdek, hukumatning faol qo'llab-quvvatlashi ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, yangi uskunalarni sotib olish uchun katta miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini berdi.

Tolani qayta ishlash hajmini yanada barqaror va mutanosib oshirish, shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini va ularning raqobatbardoshligini bosqichma-bosqich oshirish asosiy maqsad etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 16-yanvar kuni "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Ushbu hujjat soha rivoji uchun yangi istiqbollar ochdi. Xususan ushbu farmon mazmuniga muvofiq 2025-2027-yillarda to'qimachilik, tikuv-trikotaj tarmoqlarida ishlab chiqarish zanjirini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash taklif etilmoqda:

- mahsulotlar eksportini 2025-yilda 4,0 milliard AQSH dollariga, 2026-yilda 5,0 milliard AQSH dollariga va 2027-yilda 7,0 milliard AQSH dollariga yetkazish;

- AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million AQSH dollariga yetkazish;

- ilg'or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish;

- ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida 5,0 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish [1].

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, alohida korxonalar darajasidagi ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanmasdan va strategik rejalashtirishning samarali vositalarisiz prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan ko'zlangan natijalarga erishish, sohani ilmiy-texnologik rivojlantirishga qaratilgan strategiyani amalga oshirish qiyin bo'ladi.

Ilmiy-texnik rivojlanish konsepsiyasi davlat darajasida mavjudligini hisobga olsak, uni alohida korxonalarning ishlab chiqarish resurslarini boshqarish darajasida ham yanada rivojlantirish zarur [7, 8]. Shu munosabat bilan sanoat korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarish va uning tuzilmalarini strategik boshqarish masalalari doimo ravishda tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ular korxonalar faoliyati bilan bog'liq asosiy iqtisodiy tushunchalardan tortib, korxonalarning tashkiliy rivojlanishi va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi nazariyalarigacha bo'lgan keng ko'lamli jihatlarni qamrab oladi.

Shu o'rinda ushbu tadqiqot doirasida o'rganilayotgan masalalar yuzasidan bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning fikr, mulohazalarini ko'rib chiqdik, jumladan rus olimlari A. I. Dobrinina va G.P. Juravlevning umumiy tahriri ostidagi "Iqtisodiy nazariya" noli o'quv qo'llanmasida "Ishlab chiqarish-bu jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlarni yaratish uchun insonning tabiat ne'matlariga ta'sir qilish jarayoni" [2] deb yozadi.

"Korxona iqtisodiyoti" nomli darslik V. D. Gribov va V. P. Gruzinov muallifligi: "korxonaning ishlab chiqarish quvvati – bu ishlab chiqarish uskunalari va maydonlaridan to'liq foydalangan holda, ilg'or texnologiyalardan foydalanishni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish, mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlashni hisobga olgan holda, rejada belgilangan nomenklatura va assortimentda vaqt birligi uchun maksimal ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish quvvati qanchalik samarali ishlatilsa, shuncha ko'p mahsulot ishlab chiqariladi va shu bilan uning narxini pasaytiradi. Har bir korxona ma'lum ishlab

chiqarish salohiyatiga ega. Ishlab chiqarish salohiyati ishlab chiqarish quvvatining qiymatida aks etadi va ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarurdir [3].

Mahalliy olimlarimiz T. Abdibaeva, K. Misirov, Sh. Raxmonov, K. Islamovlarning “Buxgalteriya hisobi” o‘quv qo‘llanmasida “Ishlab chiqarish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tayyor mahsulot yaratiladi. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun uning turiga qarab xarajatlar qilinadi” [4] deb tariflagan.

“Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish” nomli o‘quv qo‘llanma S.N. Yuldasheva “ishlab chiqarish jarayoni — moddiy boyliklar va ishlab chiqarish munosabatlari yaratiladigan jarayondir. Moddiy boyliklarni yaratish singari ishlab chiqarish jarayoni ham, aniq bir mahsulot turini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan mehnat va tabiiy jarayonlar yig‘indisidan iborat. Aniq maqsadli faoliyat (mehnat), mehnat predmetlari va mehnat vositalari mehnat jarayonini ham aniqlovchi asosiy elementlar hisoblanadi [5].

“Buxgalteriya hisobi nazariyasi” nomli darslik T.Toshmamatov muallifligi “ishlab chiqarish jarayoni bo‘lishi uchun mehnat qurollari, mehnat buyumlari va jonli mehnat bo‘lishi shart. Bu jarayonda inson mehnat qurollari yordamida mehnat buyumlariga ta’sir etib yangi mahsulot yoki iste’mol qiymati yaratadi” [6] deb yozgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki ishlab chiqarish jarayoni xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni yakuniy mahsulotga aylantirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bosqichlar majmuasidan iborat. Bu jarayon loyihalash bosqichidan boshlanib, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan yakunlanadi. Shu boisdan agar korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilmasa, uni samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarini ishlab chiqish masalalari o‘z vaqtida hal etmasa bu uning umumiy xarajatlarni ko‘payishiga olib keladi natijada mahsulot tannarxi ham oshadi, foyda esa kamayadi.

METODOLOGIYA

Biz ushbu maqola doirasida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari muhokama etik, bunda ilmiy abstraksiya, sintez, analiz, qiyosiy tahlili, deduksiya va induksiya usullari hamda ekspert baholash kabi usullardan foydalaniladi. Tadqiqot ishimizning ilmiy asosini sohaga oid adabiyotlar, ilmiy jurnallar va konferensiya materiallari hamda yetakchi mutaxassislar fikrlari tashkil etadi, manbai bo‘lib hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fikrimizcha korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish uchun nazariy va amaliy usullar majmuasini qo‘llash zarur. Muayyan korxonada turli strategiya va vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun ishlab chiqarish quvvati nima

ekanligini, u qanday elementlardan iboratligini va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatishini tushunish kerak.

Har qanday sanoat korxonasining asosiy maqsadi bozorda xaridorgir bo'lgan mahsulot yaratishdir [9]. Kompaniya bozorga taklif qilishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori odatda uning ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog'liq [10-11].

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati uning qancha mahsulot ishlab chiqarishi mumkinligining aniq ko'rsatkichidir. Optimal miqdor shuni anglatadiki, korxona ishlab chiqarish bo'yicha barcha majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajara oladi, shu bilan birga xarajatlarni minimallashtiradi va foydani maksimallashtiradi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak korxonalarning ehtiyojiga qarab ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish umumiy butun korxona uchun ham, uning alohida bo'limlari uchun ham tuzilishi mumkin. Strategiyalarini amalga oshirish, bajarish muddatlari turlicha bo'lishi mumkin, lekin ular har doim ma'lum vaqt oralig'ida tahlil etilishi, og'ishlar yoki chetga chiqishlarni nazoratini va qo'yilgan maqsadlarga mos kelishini monitoring qilish kerak.

Ishlab chiqarish strategiyalari tovar va xizmatlar taklifi bilan bog'liq barcha jihatlarini: mahsulot nomenklaturasi, uning hajmi, sifati va ishlab chiqarish muddatlarini qamrab oladi [12].

Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyasini shakllantirishning asosiy vazifasi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish me'yorlarini belgilashdir. Iqtisodiyot nazariyasida sotilgan tovarlar hajmi odatda "sotish hajmi" deb ataladi. Bu atamani kengroq tushunish bilan bog'liq bo'lib, u moddiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning ham, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning ham xususiyatlarini qamrab oladi.

Zamonaviy dunyoda tobora ko'proq kompaniyalar biznes yuritishning ham an'anaviy, ham innovatsion usullarini qo'llamoqda. Bunday sharoitda korxona yoki uning bo'linmasining ishlab chiqarish quvvati samarali foydalanish strategiyasi - bu ma'lum vaqt oralig'ida belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarishning maksimal hajmiga erishishdir. Shu bilan birga, kompaniyaning barcha resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish kerak.

Ishlab chiqarish strategiyalarini tuzishda yoki kompaniya faoliyati natijalarini tahlil qilishda ishlab chiqarish quvvatining uchta asosiy turi ajratib ko'rsatiladi:

1. Istiqbolli ishlab chiqarish quvvati — kelajakda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining kutilayotgan o'zgarishi.


2. Loyihaviy ishlab chiqarish quvvati — barcha zarur resurslarni hisobga olgan holda hisoblangan rejalashtirilgan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.

3. Amaldagi ishlab chiqarish quvvati — erishilgan joriy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.

Korxonada ishlab chiqarishning loyihaviy quvvati korxonaning qurilish yoki rekonstruksiya loyihasiga muvofiq ishlab chiqarishi kerak bo'lgan mahsulotning rejalashtirilgan hajmini ifodalaydi. Bu hajm mehnatni tashkil etish yoki ishlab chiqarish quvvatlarini texnik jihozlashdagi har qanday o'zgarishlardan keyin ham hisobga olinadi.

Loyihaviy ishlab chiqarish quvvati kompaniyaning o'z sohasida yetakchi o'rinni egallashga intilishini aks ettiradi. Agar korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va kengaytirishni rejalashtirish bilan shug'ullanilmasa, biznesdagi barcha muvaffaqiyatlar vaqtinchalik bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish quvvatlarining ortiqchaligi ularning yetishmasligidan ko'ra foydaliroqdir.

Bizningcha ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun asosiy uchta muhim omil bo'yicha savolarga javobni hisobga olish kerak.



1-rasm. Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarining asosiy omilari¹

Samaradorlikning optimal darajasi uchun zaxira miqdori qanday bo'lishi kerak?

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi 100 foizga yetmasligi kerak. Agar u ushbu belgiga yaqinlashsa, bu ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligidan dalolat berishi mumkin.

Korxona mijozlar talabning o'zgarishiga yoki uskunalarning ishdan chiqishiga tezda javob bera oladigan ishlab chiqarish quvvatlarining ma'lum zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Bu zaxira quvvatlardan foydalanishning o'rtacha darajasi va ularning to'liq yuklanganligi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy real voqelik sharoitida ulkan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish masalasiga jiddiy qarash lozimdir, bunda bizningcha katta zaxirasi shakllantirish quyidagi hollarda ma'noga ega bo'ladi:

¹ Rasm muallif tomonidan tayyorlandi

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan talab keskin o'zgarib turadi va beqarorligi bilan ajralib turadi [13].

- Kelajakdagi sotuv hajmini aniq bashorat qilish mumkin emas va resurslar o'zgarishlarga tezkor javob berish uchun yetarli moslashuvchanlikka ega emas.

- Tovarlarning har xil turlariga bo'lgan talab tarkibida urg'ularning siljishi ro'y beradi.

- Aniq yetkazib berish jadvali mavjud emas [14].

Ko'pincha ishlab chiqarish quvvatlarining ortiqcha zaxirasi kompaniya imkoniyatlarining asta-sekin kengayishi natijasidir. Biroq, bunga yo'l qo'ymaslik uchun ishlab chiqarish quvvatlarini yirik qadamlar bilan oshirish tavsiya etiladi.

Ishlab chiqarish quvvatlarining kichik zaxirasi o'z afzalliklariga ega: u ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmaydigan katta moliyaviy resurslarni muzlatib qo'ymaslik imkonini beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish quvvatlari zaxirasi kam bo'lganda, xomashyo ta'minotidagi uzilishlar yoki xodimlar faolligining pasayishi natijasida samaradorlikning pasayishini darhol aniqlash mumkin. Ishlab chiqarish quvvatlari ortiqcha bo'lganda bu muammolar ko'pincha sezilmaydi.

Ishlab chiqarish quvvatini qachon va qanchaga kengaytirish kerak?

Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish masalasi haqida gapirganda muhim omillardan biri bo'lgan korxonaga qachon qo'shimcha uskunalar kerak bo'lishini aniqlash qobiliyati shakllanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish resurslarini kengaytirish masalasini hal qilishda ikkita yondashuv mavjud: kengaytirish strategiyasi va "kutish va ko'rish" yondashuvi.

Kengaytirish strategiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini katta hajmda, ammo uzoq vaqt oralig'ida oshirishni nazarda tutadi. Bu resurslar tanqisligining oldini olish uchun oldindan amalga oshiriladi.

"Kutish va ko'rish" yondashuvi, aksincha, resurslarni tez-tez, ammo ozgina ko'paytirishni nazarda tutadi. U "kutish va o'rganish" degan ma'noni anglatadi va zaxiralar kritik darajaga yetgandagina qo'shimcha resurslar kiritiladi.

Ishlab chiqarishning o'sishi va talabning o'sishi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik bo'lishi kerak. Agar talab oshsa va yangi quvvatlar kechikib ishga tushirilsa, ishlab chiqarish hajmining o'sishi ham ko'proq bo'lishi kerak.

Kengaytirishga asoslangan quvvatni oshirish usuli talabning o'zgarishi quvvatni oshirishdan oldinroq bo'lishini nazarda tutadi. Bu resurslarning yetishmasligi tufayli foydaning yo'qotilishini minimallashtirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish korxonaning boshqa faoliyatlari qanday ta'sir ko'rsatadi?

Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish korxonaning rivojlanish strategiyasining asosiy elementi bo'lishi kerak. Resurslarning moslashuvchanligi, ularni joylashtirish va ishlab chiqarish quvvatlari darajasi bilan bog'liq masalalarni

puxta ishlab chiqish zarur. Ushbu jihatlarning barchasi korxona risklarini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin, shuning uchun ular o'rtasidagi muvozanatni topish muhimdir.

Korxona ishida har qanday tuzatishlar korxona ishining boshqa jihatlarini rejalashtirish bilan muvofiqlashtirilishi kerak.

Ishlab chiqarish quvvatlaridagi o'zgarishlarning ham, korxonani umumiy boshqarishning ham asosida moliyaviy tahlil va inson resurslarini baholash yotadi. Bu jarayonlar bozorning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, talab va taklif o'zgarishining prognozi bilan olib borilishi kerak.

Shunday qilib ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari juda katta jarayonlarni o'z ichiga oladi, shu bilan birgalikda agar ishlab chiqarish quvvatlaridan samarasiz foydalanilsa va ular o'z vaqtida hal etilmasa, bu quyidagi muammolarga olib kelishi mumkin:

- ishlab chiqarish vaqtining ko'payishi, bu esa hamkorlar oldidagi majburiyatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin;
- reja ko'rsatkichlaridan orqada qolish;
- jarayonlarning nomuvofiqligi;
- mahsulot sifatining pastligi.

Ammo texnologik rejalashtirish vositalari va usullari yordamida bu muammolarni hal qilish mumkin. Ko'pgina korxonalar mavjud quvvatlarni optimallashtirish va yangi texnologiyalarga tez o'tish orqali ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatiga ega.

XULOSA

Shunday qilib ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish sanoat korxonalarida juda dolzarbdir ayniqsa yengil sanoat uchun ishlab chiqarish quvvatining doimiy emasligi xarakterlidir. Shuning uchun bu ko'rsatkich har doim aniq sanalar, masalan, rejalashtirilayotgan yilning boshi va oxirini hisobga olgan holda hisoblanadi.

Yil davomida yangi mahsulotlar faol joriy etiladigan va eskirgan modellar asta-sekin chiqariladigan korxonalar uchun ishlab chiqarish quvvatini choraklar bo'yicha hisoblash tavsiya etiladi. Chunki yillik baholashda ishlab chiqarish quvvatlarining optimal tarkibi hisobga olinmasligi mumkin.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda asosiy vositalardan eng samarali foydalanish imkonini beradigan shart-sharoitlarni hisobga olish zarur. Xususan, yengil sanoat korxonalari uchun bu har xil turdagi va nomdagi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishning maksimal hajmini aniqlashni anglatadi.

Korxonaning joriy samaradorligini tahlil qilish jarayoni ko'p jihatdan uni texnologik rivojlantirish jarayoniga o'xshaydi.

Ishlab chiqarish quvvatining ta'rifiga ko'ra, mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish bozorning o'zgaruvchanligi va resurslarning cheklanganligiga qaramay, boshqaruvning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Yengil sanoat korxonalarida strategik rejalashtirish turli modellar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Biroq, bunday reja mos kelishi kerak bo'lgan umumiy tamoyillar mavjud:

- operatsiyalar ketma-ketligi prinsipi bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etish;
- bog'liq ishlab chiqarish uchastkalari o'rtasidagi masofalarni qisqartirish;
- materiallar va mahsulotlarni tashish qulayligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati.

Xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llaridan biri sexlarni bitta binoga birlashtirishdir. Bu esa ishlab chiqarishni operatsiyalar ketma-ketligi prinsipi bo'yicha tashkil etish, sexlar orasidagi masofani qisqartirish va mahsulotlarni bir sexdan ikkinchi sexga o'tkazish uchun konveyerlar o'rnatish imkonini beradi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini aniqlash vazifasi nafaqat ishlab chiqariladigan mahsulotning maksimal hajmini belgilash, balki turli bo'linmalar faoliyatidagi nomutanosibliklarni aniqlashdan ham iborat. Bu ishlab chiqarishning muammoli uchastkalari va yashirin zaxiralarni aniqlash imkonini beradi.

Korxonaning barcha asosiy sexlari uchun ishlab chiqarish quvvatini hisoblash kerak. Yordamchi sexlarga kelsak, bu yerda soddalashtirilgan tekshiruvlar bilan cheklanish mumkin.

Shundan qilib umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki zamonaviy iqtisodiy voqelik sharoitida ishlab chiqarish quvvatlarini samarali foydalanish aniqlash, hisoblash va tahlil qilish imkonini beruvchi uslubiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shundan kelib chiqib biz ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqarishni rejalashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berdik bu bozor omillarini hisobga olgan holda undan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 16.01.2025 yildagi PF-6-son. <https://lex.uz/docs/-7330228>

2. Экономическая теория: учебник / под общ. ред. А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой. — 2-е изд. — Москва: ИНФРА-М, 2024. — 747 с.

3. Экономика предприятия: учебник. Практикум / В.Д. Грибов, В.П. Грузинов. — 8-е изд., перераб. и доп. — Москва: КУРС : ИНФРА-М, 2023. — 448 с.

4. T. Abdibaeva, K. Misirov, Sh. Raxmonov, K. Islamov. Buxgalteriya hisobi. (O'quv qo'llanma). — T.: “Nihol print” OK, 2021. 364 b.
5. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish [Matn]: o'quv qo'llanma / Yuldasheva Saida Nematovna. — Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020, - 290.
6. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn] : darslik. T. Toshmamatov. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. — 376 bet.
7. Ismanov I.N., Davlyatova G.M., Buzrukxonov S.M. Biznesni rejalashtirish. Darslik. 2020, 412 b.
8. Замбръжницкая, Е. С. (2021). Концептуальные основы стратегического управления производственными мощностями. Вестник Омского университета. Серия «Экономика», (3), 50-60.
9. Mamajonova, G. (2023). Korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning samaradorligini oshirish masalalari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(3), 78–87.
10. Mamajonova, G. (2022). The Mechanism of Integration of Cluster Members into the Innovative Environment for the Implementation of Innovative Projects. Miasto Przyszłości, 28, 455-458.
11. Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari: korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.
12. Mexmonaliyev, U. B. (2024). Ichki auditni rivojlantirishning asosiy omillari. University Research Base, 277-279.
13. Tuychieva, O. N. (2022). Ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(11), 180-189.
14. Кузнецов, Д. В., & Файнгольд, М. Л. (2024). Формирование системы показателей производственной мощности. Экономика промышленности/Russian Journal of Industrial Economics, 17(2), 223-230.